

“O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi” respublika ilmiy seminari o‘tkazildi

Bugun, 20-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan hamkorlikda “O‘zbek davlatchiligi tarixida Surxon vohasi” mavzusidagi Akademik Yahyo G‘ulomov nomidagi “O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi” respublika ilmiy seminarining navbatdagi 78-umummilliy yig‘ini Termiz davlat universitetida tashkil etildi.





Unda respublikamizdagi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliygohlarining akademiklari, yetakchi soha mutaxassislari, yosh tadqiqotchilar va talabalar ishtirok etishdi.

Seminarda o'zbek davlatchiligi tarixida Surxon vohasining bronza, ilk temir, antik va ilk o'rta asrlar davri moddiy madaniyati, davlatchilik ildizlari va ilk unvonlar kabi ilmiy ma'ruzalar tinglandi. Bu masalalarga oid yangi topilmalar va yangi ilmiy xulosalar berildi. Bundan tashqari, koviylar boshqaruvi davri tarixi, Birinchi Uyg'onish davrida Termiziyning o'rni, ma'naviyati hamda o'rta asrlar davrida Surxon vohasining tarixi, madaniyati va ma'naviyati xususida yangi ilmiy ma'ruzalar tinglandi.

Bu kabi ma'ruzalar Surxon vohasining hozirgi va kelgusidagi ilmiy faoliyati uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Hammamizga ma'lumki, Surxon vohasi o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida muhim hudud bo'lish bilan birga Islom dunyosiga yetakchi olimlarni yetkazib bergan makon hisoblanadi. Aynan shu jihatlar e'tiborga olinib, o'tkazilgan seminar doirasida vohaning keyingi yillarda dunyo ilm-faniga munosib hissa qo'shishi imkoniyatlari keng ilmiy jamoatchilik oldida muhokama qilindi. Bahs-munozarlarda respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan tarixchi olimlar va fan o'qituvchilari jonli va onlayn

shaklda bu borada o'z fikr-mulohazalarni bildirishdi.